

Hurriyatdan nechuk foydalanamiz!

Istibdodg‘a qarshi hozirlanub qo‘lig‘a qalam ushlagan, insoniyat tarafdarlarining ko‘bdin beri kutgan umidlari hurriyat edi. Istibdod romkasinda siqilub, qoburg‘asi qirsillag‘on, butun rusiya fuqarosi, shular jumlasinda rusyaning sodiq tobiasi bo‘lg‘on o‘ttuz milliyo‘n jamoasinda biz musulmonlarni ham, ulug‘ tangrimizdan tilagan muqaddas tilagimiz, shul hurriyat edi, lekin, hech kimni hurriyatning bu qadar kenglik ila maydong‘a otilishga aqli ishonmog‘on va fikri yetmagan edi.. Demak, hurriyat tarafdarlarning eng borub taralg‘on nuqtalari “Idorai mashruta” edi. Chunki, uch yuz yildan beri “Romanov” sulolasig‘a mansub, zolim qora kuchlarni, butun mazlumlar yoqasig‘a uzatilgan qonli va zaharli panjalarining mazlumlar yoqasindan olub tashlab, alarni ozod ayturg‘a ko‘chimiz bitmas degan bir fikr hurriyat qahramonlarning ko‘ngliga o‘rinlashqon edi. Bu - fikr tabiiy edi. Lekin ish tamomila boshqa bo‘lub chiqdi. Ul zolim qaro kuchlarni, sof olir bir pok kuch yiqitdi. YA’ni jahannam ostiga yubordi, “Rasputin” kibr va fahsh bir mujikni sasig‘ quchog‘ida tarbiyalangan muttaham Nikolay, taxtidan sudralub, tushuruldi. Daryo “ummon” kabi qonlarni oqishig‘a sabab bo‘lg‘on, vatan xoini piyonista vazir Ishtrumerlar boshqalarg‘a qazig‘ chuqurg‘a o‘zлari yiqildilar... endi, hurriyat va insoniyat tarafdarlarining birdan bir bo‘lg‘on fikrlari “xalq jumhuriyati” bo‘lsun degan keng bir nuqtag‘a kelub to‘xtadi... Bu fikr ko‘bdin beri insoniyat olamini ko‘nglida yashirunub, kelgan bir fikr edi. Asrlarcha ichida saqlanub kelgan bir oliv fikrni to‘g‘ridan to‘g‘ri arbobi maydong‘a tashladi.

Va shul ruh ila xalqni sug‘ora boshladgi “xalq jumhuriyati” masalasi avval vatandoshlarimiz ruslar tarafindan qo‘zg‘alg‘on bo‘lsa ham, munga ruslardan boshqa millatlar ham jon dil ila fikran ishtirok etushdilar. Chunki boshqalarning ham birinchi maqsadlari Romanov sulolasin mutlaq tub tomiri ila ag‘darub tashlamoq, millat hokimi ismindagi xoinlarni munda jahannam ostig‘a irg‘itmoq edi. Inshaalloh, hammamiz maqsadimizga bitushdik uch yuz yildan beri istibdodli jahannam moshinalarda qisub pachoqlang‘on Romanov nasli bitdi. Inshaalloh ul abadiy bitdi. Endi mutlaqo bosh ko‘tara olmayajak, bu kunga qadar “oq podsho imperator otamiz deganlar hazratlar ismi ila insonlarni vijdonlarin judo bo‘lg‘on mustabid, hukmdor o‘rnig‘a, xalq talabin o‘niga yetkuradurg‘on, ongli xalq hokimiyati tashkil etildi. Bu kunlar bizim uchun favqulodda shodlik, favqulodda g‘animat kurnadir... maqsadga kelaman turkistonli qardoshlar!

Ma’lumingizdirki – 55 yildan beri bizlar mustabid zolim hukumatning idorasinda ezilub, o‘zimizga eng kerakli bo‘lg‘on diniy va milliy huquqlarimizdan mahrum etilib kelduk. Biz o‘zimizg‘a kerakli huquqimizdan mahrum ekanlig‘imizni uzoq vaqt bilmasdan turdik. Chunki, mustabid hukumat tarafindan turli tadbirlar ishlatildi. Ul tadbirlar hukumat mustabid fikrig‘a muvofiq bo‘ldig‘i uchun yangidan shul tadbirlarin qutlov yo‘lig‘a kirishdi. Bu vaqtida hukumat o‘zining mashhur misso‘nerlaridan Ostroumovni “U bor! Turkistonni qalin ko‘rpag‘a o‘rab uxlat!” deb Turkistong‘a yubordi. Haligi Ostroumov boboy Turkistonga keldi. Xalqni ahvoli ruhiyasi ila tanishdi. Hozir turkistonlilarg‘a “as‘hobi kahf” uyqusи berilsa ham bular ekan degan bir manfur hayolni o‘yladi.

Ammo ish juda katta! Mal’un misso‘ner boboy shodlanub, shodlanub jiddiyat ila ishga kirishurg‘a plan qurdi. Avval o‘ziga maslakdosh etub, qozi, mudarris, to‘ra

isminda bir necha milliy kofirlarni chaqirdi. Alar ila birga ishlashurg‘a tutindi. Alar ham mal‘un misso‘ner boboy ila fikrda maslakda bir bo‘lib, Turkiston xalqig‘a misso‘nerlik ruhini bera boshladilar. Uxlatmoqchi bo‘ldilar. Ham bir necha vaqt uxlatdilarda bo! Alarning maqsadi butun umrg‘a Turkistonni g‘ofillamak edi. Lekin, Allohga ming shukrki “Jaa al haqqu va zahaqal al botil” (haq keldi, botil yo‘qoldi) degan falsafai jalilasi ila janob haq o‘zi yordam etdi. Bino alayh ul din dushmanlari, millat miqrublarini planlari qo‘porildi. YA’ni ul milliy kofirlar mutakollari hisob etilgan Ostroumov ila barobar o‘ldi. Tiriklay o‘ldular!..

Endi boshqalar ila qo‘lma-qo‘l tutishib hurriyatdan foydalanurg‘a Turkiston muslimmonlari ham ishga kirishdilar.

Mirmuhsin Shermuhammadov
“Najot” gazetasi. - 1917. – 24 may. № 16.
(O.Z.)